

OTA-ONALAR BILAN SAMARALI HAMKORLIK QILISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Yusupaliyev Bekzodbek

Andijon iqtisodiyot va pedagogika NOTM katta o'qituvchisi

Abdurashidova Durdonaxon

Andijon iqtisodiyot va pedagogika NOTM

MTT 12-guruh talabasi

E-mail: abdurashidovadurdona132@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola maktabgacha ta'lim tizimida ota-onalar bilan hamkorlikni samarali tashkil etishning dolzarb masalalariga bag'ishlangan. Maqolada an'anaviy (yig'ilishlar, suhbatlar) va zamonaviy (raqamli platformalar, interaktiv treninglar, hamkorlikdagi loyihalar) usullarning qiyosiy tahlili keltirilgan. Maqola yakunida tarbiyachi va ota-onalar o'rtasida ishonchli hamkorlikni shakllantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim tashkiloti, ota-onalar bilan hamkorlik, innovatsion metodlar, pedagogik kompetentlik, oilaviy ta'lim.

Mustaqil O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish, jumladan, maktabgacha ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori, 2018-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3955-sonli Farmoni va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar mazkur sohaga davlat darajasida qaratilayotgan e'tiborning yaqqol ifodasidir. Mazkur hujjatlarda maktabgacha ta'lim muassasalarining oila bilan hamkorligini mustahkamlash, ota-onalarning pedagogik bilimlarini oshirish va ularni ta'lim-tarbiya jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish alohida vazifa sifatida belgilab qo'yilgan.

Zamonaviy jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, oila institutining transformatsiyasi maktabgacha ta'lim tashkiloti (MTT) va oila o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi shakl va usullarini izlab topishni taqozo etmoqda. Agar o'tgan asrda ota-onalar bilan ishlash asosan ma'rifiy va axborot berish xarakteriga ega bo'lib, bir tomonlama ta'sir ko'rsatishga asoslangan bo'lsa, bugungi kunda bu munosabatlar teng huquqli, o'zaro manfaatli va shaxsga yo'naltirilgan hamkorlik darajasiga ko'tarilishi lozim. Chunki bola shaxsining barkamol rivojlanishi, uning jismoniy, psixologik va ijtimoiy sog'lig'ini ta'minlash faqatgina MTT va oilaning birgalikdagi sa'y-harakatlari orqaligina amalga oshishi mumkin.

Amaliy kuzatishlar va mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar bilan hamkorlik qilishning an'anaviy shakllari (ota-onalar yig'ilishlari, ma'ruzalar, tematik stendlar) ustunlik qilmoqda. Biroq, ushbu usullar ko'pincha rasmiy tusga ega bo'lib, ota-onalarning real ehtiyojlari va qiziqishlarini to'liq qondira olmayapti. Natijada, ota-onalarning aksariyati passiv kuzatuvchi yoki buyruqni bajaruvchi rolida qolmoqda, MTT hayotida faol ishtirok etmayapti. Shu bilan birga, zamonaviy oilalarning ijtimoiy portreti o'zgargan: ikkala ota-onaning ish bilan bandligi, vaqt etishmasligi, avlodlar o'rtasidagi qadriyatlar tafovuti, raqamli texnologiyalarning kundalik hayotga chuqur kirib borishi kabi omillar ota-onalar bilan

muloqotning yangi, moslashuvchan va interaktiv usullarini joriy etishni taqozo etmoqda. Bu esa o'z navbatida quyidagi qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarmoqda:

MTT va oila o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish zaruriyati bilan mavjud an'anaviy usullarning samarasizligi o'rtasida;

Ota-onalarning pedagogik bilimlarga bo'lgan ehtiyoji bilan ularni olish imkoniyatlarining cheklanganligi o'rtasida;

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng imkoniyatlari bilan ulardan MTT amaliyotida yetarlicha foydalanilmasligi o'rtasida.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida ikki muhim ijtimoiy institut – oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining o'zaro hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu hamkorlik bolaning jismoniy, ruhiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishining uyg'unligini ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi. Pedagogika nazariyasida "hamkorlik" tushunchasi o'zaro hurmat, teng huquqlilik, bir-birini tushunish va qo'llab-quvvatlashga asoslangan munosabatlar tizimi sifatida talqin etiladi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, oila va maktabgacha ta'lim muassasasi hamkorligi muammosi ko'plab olimlarning tadqiqot obyekti bo'lgan. Jumladan, Y.A.Komenskiy, I.G.Pestalossi, K.D.Ushinskiy kabi klassik pedagog olimlar oila tarbiyasining bolaning shakllanishidagi o'rni va maktabning oila bilan aloqasi zarurligini asoslab berganlar. Rus psixologlari L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, D.B.Elkoninlarning tadqiqotlarida bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit, jumladan, oila va maktabgacha ta'lim muassasasining o'zaro ta'siri muhim omil sifatida qaralgan.

O'zbekistonlik olimlardan M.Quronov, Sh.Shodmonova, D.Ro'ziyeva, G'.Shoumarov va boshqalarning ilmiy ishlarida milliy qadriyatlar asosida oila va maktabgacha ta'lim muassasasi hamkorligini tashkil etishning pedagogik-psixologik jihatlari yoritilgan. Xususan, akademik M.Quronov o'z asarlarida oila va maktab hamkorligining tarixiy ildizlarini o'rganib, bu hamkorlik xalqimizning milliy an'alarida qadimdan mavjud bo'lganligini ta'kidlaydi.

Hamkorlikning asosiy tamoyillari. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim:

1. Teng huquqlilik tamoyili – har ikki tomonning bir-biriga nisbatan ustunlik qilmasligi, o'zaro hurmat va e'tirof.
2. Ixtiyoriylik tamoyili – hamkorlikning majburiy emas, balki o'zaro manfaat va qiziqish asosida tashkil etilishi.
3. Ochiqlik tamoyili – maktabgacha ta'lim tashkilotining oila oldida ochiq bo'lishi, ta'lim-tarbiya jarayoni haqida to'liq va ishonchli axborot berishi.
4. Individual yondashuv tamoyili – har bir oilaning o'ziga xos xususiyatlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olish.
5. Tizimlilik va izchillik tamoyili – hamkorlikning muntazam va tizimli tarzda amalga oshirilishi.
6. Moslashuvchanlik tamoyili – o'zgaruvchan sharoit va ehtiyojlarga qarab hamkorlik shakllarini o'zgartira olish.

Hamkorlikning funksiyalari. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi bir qator muhim funksiyalarni bajaradi:

Tarbiyaviy funksiya – bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun yagona ta'lim-tarbiya muhitini yaratish.

Axborot funksiyasi – ota-onalarni bolaning rivojlanish dinamikasi, MTTdagi faoliyati, dastur mazmuni haqida xabardor qilish.

Konsultatsion funksiya – ota-onalarga bola tarbiyasi, rivojlanishidagi muammolarni hal etishda yordam berish.

Profilaktik funksiya – bola rivojlanishidagi mumkin bo'lgan og'ishlarning oldini olish.

Korreksion funksiya – bola rivojlanishidagi nuqsonlarni birgalikda tuzatish.

Motivatsion funksiya – ota-onalarni MTT hayotida faol ishtirok etishga rag'batlantirish.

Hamkorlikning mazmuni. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligining mazmuni quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Psixologik-pedagogik ma'rifat – ota-onalarning pedagogik bilimlarini oshirish, ularni bola rivojlanishining qonuniyatlari, yosh xususiyatlari, tarbiya usullari bilan tanishtirish.

2. Amaliy ishtirok – ota-onalarni MTTdagi tadbirlar, loyihalar, ekskursiyalar va boshqa faoliyatlarga jalb etish.

3. Diagnostika va monitoring – bolaning rivojlanish dinamikasini birgalikda kuzatish, muammolarni aniqlash va bartaraf etish.

4. Konsultatsiya va qo'llab-quvvatlash – ota-onalarga individual maslahatlar berish, ularni psixologik qo'llab-quvvatlash.

5. Ijtimoiy sheriklik – MTT va oilaning boshqa ijtimoiy institutlar (kutubxona, muzey, sport maktablari va h.k.) bilan hamkorligini tashkil etish.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – T.: O'zbekiston, 2020.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3955-sonli Farmoni.

4. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – T.: 2018.

5. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: 2006.

6. Arziqulov D.N. Maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyachining ota-onalar bilan ishlash metodikasi. – T.: 2015.

7. Internet-resurslar: www.uzedu.uz, www.ziyonet.uz, www.maktabgacha.uz